

*Jizzakh State Pedagogical Institute*



**Journal of Preschool  
Education**

*The faculty of pre-school  
education*

## **Bolalarga ingliz tili o'qitishning yosh chegarasi**

*JDPI Maktabgacha ta'lim fakulteti*

*O'qituvchi G.Majidova*

*Talaba M. Ziyodullayeva*

**Annotasiya.** Dunyo globalashuv jarayoni insonlardan o'z ona tilidan tashqari yana bir necha xorijiy tillarni o'rganishni taqozo qilmoqda. Hozirgi tadqiqotlar ushbu jarayonni erta yoshda boshlash samariliroq bo'lishini ko'rsatadi. Bizning yurtimizda ham ushbu masalaga qat'iy e'tibor qaratilgan, xorijiy tillarni o'qitishda xususan ingliz tilini o'qitishda dunyoning yetakchi tashkilot va universitetlar hamkorligida yangicha yondashuv asosida dasturlar ishlab chiqilmoqda. Oxirgi 3 yilda bu jarayon maktabgacha ta'limda ayniqsa o'z rivojini topmoqda. Davlat qaramog'idagi hamda xususiy tarmoqdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'rgatish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada chet tillarini xususan, ingliz tilini bolalikni ilk yoshida o'qitishda ta'limiy o'yinlardan foydalanishning muhimligi va aynan turli o'yinlar orqali til ko'nikmalari oson o'zlashtirilishi yuzasidan fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** xorijiy til, erta yoshda til o'rganish, ta'limiy o'yin, faoliyat, nozik vosita mahorati, ko'z-qo'l muvofiqlashuvi, faol ta'lim turlari, ingliz tilida blok o'ynash, rol o'yinlar,

Har birimizga ma'lumki so'ngi yillarda davlatimizda ingliz tilini o'qitishga, kelajak avlodni til o'rganishiga ko'plab shart sharoitlar yaratib berilmoqda. Ingliz tilini bolalarga o'qitishni yosh chegarasi tobora qisqartirilmoqda. Bu esa har birimiz uchun juda ham quvonarli holat. Shuni takidlab o'tish lozimki 4-5 yoshli bola allaqachon darslarda toliq tayyor holatda deb hisoblanadi. Bu yoshda bolalar kattalar o'rganishiga yillab ketadigan ma'lumotlarni bir necha oylarda o'zlashtirib oladilar. Chunki bolalar psixologik jihatdan, xotira, eslab qolish jihatlaridan chinakam izlanuvchan va tez o'zlashtirish qobiliyatiga egadir.

Hozirgi rivojlanayotgan zamonaviy dunyoda ta'lim va tarbiyaning asosiy maqsadi har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Bunday yetuk shaxsning chet tilini bilish o'ziga xos hissa qo'shadi. Ayniqsa maktabgacha yoshda chet tilini o'rganish bu yosh avlodni kelagagiga katta ta'sir ko'rsatadi, ularga turli xil imkoniyat eshiklarini ochadi. Xalqimizda shunday maqol bor "Til bilgan -el biladi". Bu maqol ham bejizga aytilmagan zero, har bitta yangi yilni o'rganish yangi bir dunyo yaratish, yangi madaniyat o'rganish demakdir.

Chet tilini o'rganish, o'zlashtirish uchun maktabgacha yosh o'ziga xosdir. Maaktaabgacha yoshdagi bolalarni psixalogiyasini hisobga olgan holda shuni aytishimiz mumkinki, ularda nutqning fonetikasi va intonatsiyasi juda ham sezgir. Shuning uchun biz ularga birinchi bo'lib to'g'ri talaffuzni o'rgatishimiz, turli xil mashqlar orqali bunday qobiliyatlarni ularda shakllantirishimiz lozim. Bolalarda chet tilidagi nutqini ijobiy tomonga o'zgartirish, ularni to'g'ri nutqiy faoliyatga yo'naltirish bolalarda kiyinchalik til o'rganishning keyingi bosqichlariga tez moslahuvchanlikni va tezroq eslab qolishni bu esa chet tilidagi muloqot jarayonida ko'plab yengilliklar yaratadi.

Ma'lumki har bir bolaning o'ziga xos xarakteri, o'ziga xos psixalogiyasi bor. Biz ularga ingliz tilini o'qitishning eng samarali, qiziqarli usullaridan foydalanmasak maktabgacha yoshdagi bolalar tabiatan o'yinqaroq bo'lganliklari uchun ular tezda zerikib, mashg'ulotlardan bezib qolishlari mumkin.

Har qanday tilni o'rganishga birinchi poydevor bu yetarlicha so'z boyligiga ega bo'lishdir. Va biz chet tilini o'qitishning samarali usullaridan foydalangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'qitishning dastlabki bosqichida so'z boyligini shakllantirish xususiyatlarini aniqlashimiz lozim. Vaholanki bizda shunday savol tug'ilishi tabiiy "qanday o'rgatamiz?"

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish usuli ba'zida ota-onalarni hayratda qoldiradi. Maktabgacha va kichik yoshdagi o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatish usuli ularni yosh xususiyatlaridan kelib chiqiladi. Ba'zan kattalar bu haqida o'ylamaydilar. Ular huddi katta yoshdagi kishilar chet tilini qanday o'rgangan bo'lsa, bolalarga ham shunday o'rgatishga harakat qiladilar. Va bu butunlay boshqa yosh guruhi va turli xil o'qitish usullaridan.

Maktabgacha va kichik yosh bolalarga chet tilini o'rgatishda bir shiorni bilib olishimiz kerak "biz o'rganmaymiz biz o'ynaymiz". Bu metodikaning kattalarga til o'rgatishdan farqi shundaki, bolalar ingliz tilini o'rganmaydilar ular o'ynashadi. Ya'ni ular o'yin metodikasi orqali o'rganadilar. Bolalar bunday qiziqarli mashg'ulotlar orqali dars o'tish ularni yanada qiziqtiradi. Bolalarni bu yoshda biror nima o'rganishga majburlash befoyda. Ularda qiziqqan narsalariga ko'proq e'tibor qaratish, ularni ko'proq yodda saqlab qolish xarakteri kuchliroqdir.

Bolalarda maktabgacha bo'lgan davrdan ingliz tilini o'rgatish ularni kelajakda sezilarli darajada yutuqlarga erishishida katta ahamiyat kasb etadi. Bu yosh davridan boshlangan ta'limning avzalliklari shundaki bolalar o'ynaab oson va tabiiy ravishda o'rganadilar. Ularga hech qanday gramatik qoidalar shart emas. Bazi insonlar chet tilini o'rganish murakkab qoidalari ko'p degan

tushunchada. Aksincha chet tilini o'rganishni qancha erta boshlansa shuncha oson Maktabgacha bo'lgan yosh davri esa til o'rganishga ayni muddaodir. Bunga yaqqol misol qilib biz yangi tug'ilgan paytimiz hech qanday tilni bilmaganmiz. Asta sekinlik bilan atrofdagi muhit orqali nutqimiz rivojlana boshlagan va hech qanday gramatik qoidalarsiz biz ravon gapira boshlaganmiz. Ingliz tili ham huddi shunday.

Shu qatorda eng muhim narsalardan biri bu maktabgacha yosh bolalarda diqqat doirasi chegaralangan. Biz buni unutmasligimiz lozim. Shuning uchun ularga o'rgatayotgan narsalarda bir xillikdan qochishimiz kerak. Turli xil usullarda olib borilgan dars jarayonlari ta'lim sifatini ijobiy tomonlama o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ingliz tilini bolalarga o'rgatishda ko'proq yangi metodikalardan foydalanish talab etiladi. Bolalarga til o'rgatishda samarali metodikalardan biri bu o'yin metodikasi. O'yin metodikasi o'z ichida vaziyatli, raqobatbardosh, ritm musiqa oyinlari va badiiy va ijodiy o'yinlarga bo'linadi.

Vaziyatli o'yin metodikasida ko'proq bir vaziyatdan boshqasiga o'tishda bolaning til ko'nikmalaridan foydalanish ya'ni impravizatsiya ko'proq rivojlantiriladi.

Raqobatbardosh o'yin metodikasi esa bolalar o'zlari ega bo'lgan til ko'nikmalari va lugatlarini charxlaydi va bu guruhda eng ko'p javob bergan bola bo'lib bo'ladi.

Ritm musiqa o'yinlarida bolalarga ingliz tili turli xil raqslar va musiqa, qo'shiq orqali o'rgatiladi. Bu esa bolalarga ko'proq yaxshi kayfiyat, til o'rganish bilan birgalikda jismoniy jihatdan ham bolalar uchun foydalidir.

Badiiy va ijodiy o'yinlar bu o'yin metodikasidan bolalar turli xil sahna ko'rinishlar orqali til imkoniyatlaridan foydalanib nimalarnidir tasvirlab berishadi. Va bu o'yin metodikalardan tashqari bolalarga tilni oson va tushunarli tarzda o'rgatish uchun video darsliklar va qo'llanmalar ham samarali usullaridan hisoblanadi. Turli xildagi videoroliklar, multfilmlar bolalarni yanada qiziqtiradi va videodagi hayvonlarni harakatlari va ular aytayotgan lug'atlar bolani esida juda yaxshi qoladi

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalarda til o'rgatishni boshlash ularga yangi qiziqarli metodlar orqali ularning bilim va ko'nikmalarini yuksaltirish juda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ahir bejizga aytishmagan "yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh" kabidir. Va Hozirgi dunyoning globallashuv jarayonida yangi inovatsiyalarni o'rganishda bilim va ko'nikmalarni boshqa davlat texnologiyalari bilan, yangiliklari bilan almashinuvida til asosiy vazifani kasb etadi

Adabiyotlar:

Maktabgacha ta'lim jurnali: <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>

1. O‘z DSt 17368–2020 “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash haqida ” <https://www.cde.ca.gov/sp/cd/re/caqdevelopment.asp>.
2. . [https://eacea.ec.europa.eu/national-policies/eurydice/content/teaching-and-learning-early-childhood-education-and-care-8\\_en](https://eacea.ec.europa.eu/national-policies/eurydice/content/teaching-and-learning-early-childhood-education-and-care-8_en). internet resurs
3. . Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang‘ich maktab o‘quvchilariga chet tilini o‘rgatishda o‘yinlar. Baxramova M. D. Tuzuvchi: Baxramova M. D., — T.2016.